

SARIMSOQ EKISH AGROTEKNIKASI

UrDU ekologiya va hayot faoliyati kafedrası dotsenti

Babajanova Sanabar Yuldashbayevna

UrDU biologiya kafedrası magistranti

Saydimova Muxayyo Normatovna

UrDU Bioinjeneriya fakulteti talabasi

Saparboyeva Mahliyobonu Sulton qizi

Annotatsiya. Hozirgi kunda aholini oziq –ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash masalasi har qachongidan ham dolzarb masalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa xam oziq-ovqat mahsuloti sifatida, hamda dorivor modda sifatida ishlatiladigan eksportbob o`simliklarni yetishtirish ulardan mo`l hosil olish orqali mamlakatimiz va aholini iqtisodiyotini oshirish, aholini oziq –ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash va chetga eksport qilish zamon talabidir. Shularni hisobga olgan holda xam oziq- ovqat sifatida ishlatiladigan, xam dorivorlik xususiyatiga ega bo`lgan sarimsoq o`simligidan mo`l hosil olish uchun uni yetishtirish agrateknologiyasiga amal qilish lozim.

Kalit so`zlar: mintaqalar, zamburug`, agronom, kvadrat, metr, o`g`itlar, sarimsoq, dezinfeksiya, bioekologiya.

Kirish: Jahon miqyosida aholining oziq –ovqat xavfsizligini ta`minlashda agrar sohaning o`rni va ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta`minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 oktabrdagi “Sarimsoqpiyoz xamda to`qson bosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko`paytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4863-sonli qaroriga binoan Qishloq xo`jaligi vazirligi O`zbekiston fermer, dehqon xo`jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Bog`dorchilik va issiqxona xo`jaligini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda sarimsoqpiyoz yetishtirish loyihasini amalga oshirish uchun 7 mld so`m miqdordagi mablag`lar fermer, dexqon xo`jaliklari va tomorqa yer egalarini qo`llab-quvvatlash jamg`armasi hamda Bog`dorchilik va issiqxona xo`jaligini rivojlantirish jamg`armasidan ssuda sifatida ajratilishi ta`kidlab o`tilgan. Bu qaror zamirida sarimsoq yetishtirishni to`g`ri tashkil etish, mahsulot hajmini ko`paytirish, va eksportni yo`lga qo`yish ko`zda tutilgan.

Asosiy qism: Sarimsoqning bioekologik xususiyatlari. Sarimsoq sovuqqa chidamli bo`lib u hatto +3, +5°S da ham ko`karib chiqa oladi va -7, -8°S sovuqda ham nobud bo`lmaydi. Sarimsoq rivojlanishining boshlarida 5-10°S , pallalar hosil

qilayotganda 5-10°S, yetilayotganda esa 20-25°S da yaxshi o'sadi. Harorat 20°S dan yuqori bo'lganda o'simlik ildizlarining o'sishi to'xtab qoladi. Namlikni yaxshi ko'radi. Shuni ta'kidlash lozimki janubiy ya'ni qurg'oqchilik mintaqalarda yetishtiriladigan sarimsoq navlari issiqlikka chidamli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida quyida ko'rsatilgan sarimsoqning tez pishar navlari yetishtiriladi:

1. O'zbekiston binafsha rang sarimsog'i;
2. Andijon sarimsog'i;
3. Tungon sarimsog'i.

Sarimsoqning almashlab ekishdagi o'rni. Eng yaxshi o'tmishdoshlar - bu yerni erta bo'shatadigan ekinlar bo'lib, ular uchun organik o'g'itlar qo'llaniladi, ular tarkibiga bodring, qovoq, ertagi karam, salat, dukkakli o'simliklar kiradi. Piyozdan keyin sarimsoq ekish tavsiya etilmaydi, chunki ularga bir xil zararkunandalar, kasalliklar ta'sir qiladi.

Sarimsoqni organik va ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirish. Sarimsoqni parvarish qilganda har gektar dalaga 20-30 t chirigan go'ng, 200 kg azot, 140-160 kg fosfor va 60-75 kg kaliy o'g'itlarini qo'llash mo'l va sifatli hosil olishga imkon beradi. Agarda uyda yoki tamorqada sarimsoq yetishtiriladigan bo'lsa o'g'itlash meyorlari bir metr kvadrat yer maydonga sarflanadigan mineral va organik o'g'itlar hisobidan foydalaniladi. Yani 1m² maydonga mineral o'g'itlar miqdori: 30-40 g ammiakli selitra, 50 g superfosfat, 15-20 g kaliy xlorid, 10-15 kg organik o'g'itlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Sarimsoqni ekish. Sarimsoqni kuzda ekish uchun qishki navlar tanlab olinadi. Chunki ular qish oldidan ekilganida yaxshi hosil beradi. Kuzda bahorgi sarimsoqni ekish chinnigullar kam ildiz otishiga, ekinlarning ingichkalashiga va hosilni yetishmasligiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun kuzgi va bahorgi ekishda yaxshi o'sadigan hosildorligi yuqori bo'lgan navlarni tanlab olish tavsiya qilinadi. Kuzgi sarimsoq ekishda asosiy narsa sarimsoqni yaxshi qishlashi uchun unga sharoit yaratish hisoblanadi. Bular esa ekish joyini to'g'ri tanlash, ekish muddati, sarimsoq bo'lakchalarini vazni va ekish chuqurligi hamda ekilgandan so'ng ustiga to'shaladigan go'ng miqdori bilan ta'minlanadi. Agar sarimsoq ekilgandan so'ng ortiqcha o'g'it qo'llanilsa zamburug' kasalliklarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun organik o'g'itlar meyorida ishlatilishi kerak. Zamburug' kasalliklari har qanday bog' o'simliklariga zarar yetkazadi. Sarimsoq o'simligi ham bundan mustasno emas. Shuning uchun mis sulfatning 1% eritmasi bilan sarimsoq ekiladigan maydonga ishlov berish tavsiya etiladi. Sarimsoq bo'lakchalarini begona o'tlardan tozalangan, suv bosmagan, tekis yuzali, unumdor yerga ekilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Sarimsoq ekishda faqat sog'lom tishlari bo'lgan sarimsoq boshlari tanlab olinib, barcha kasal, chirigan yoki o'sib chiqqan lampalar olib tashlanadi. Katta

yoki o`rta tishlar ekish uchun eng mos material hisoblanadi. Ekish uchun tayyorlangan tishlar qirib tashlanadi, 3% TMTD suspenziyasi bilan 10-15 daqiqa davomida dezinfeksiya qilinadi. Agar dezinfeksiya qilinmasa, ularni kaliy permanganatning kuchsiz eritmasida yoki mis sulfatning 1% li eritmasida 12-24 soat davomida namlash foydali bo`ladi. Agar shu tartibda yuqoridagi tavsiyalarga rioya qilgan holda sariqsoq ekilsa, ekish materialini yaxshilashga yordam beradi, uni kasalliklardan himoya qiladi. Sariqsoq odatda qatorga ekiladi, qo`lda ekilganda qatorning orasidagi masofa 20-25 sm, sariqsoq tishlari 15-20 sm masofada joylashtiriladi.

Sarimsoqni ekish muddatlari xar bir viloyatning tuproq iqlim sharoitiga bo`qliq holda turlicha bo`ladi. Qish mavsumidan oldin sarimsoqning qishki navlarini ekish uchun maqbul vaqt – Kuban navida janubiy viloyatlar uchun oktyabr oyining uchinchi o'n kunligi. Shimoliy viloyatlarda eng yaxshi davrlar avgust oyining oxiri, sentyabr oyining boshlari hisoblanadi, yani 25 avgustdan 5 sentyabrgacha muddatlar sanaladi. Agarda erta muddatlarda ekilsa, o'sib chiqqan tishlar qish oldidan 3-5 ta haqiqiy barglari bilan chiqib ketadi, ular erta sovuqdan aziyat chekishi mumkin. Barglar sovuqdan yoki sovuq shamoldan aziyat chekmasligi uchun ularni usti yopilib pana qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Ekish uchun yer tayorlash. Yer yaxshilab sug`orilib sho`ri yuviladi va tobga kelgandan keyin chuqur qilib ag`darilib tekislanadi keyin 20-25 sm qator oralig`ida xar 15-20 sm dan yerda teshikchalar xosil qilinadi, shundan keyin hosil bo`lgan teshikchalarga sarimsoq tishlari joylashtirilib tuproq bilan teshikchalar yopib chiqiladi. Ekish zichligi siz ekayotgan tishlarning hajmiga bog`liq. Odatda, agronomlar 1 m² yerga 150 gramdan -350 gramgacha sarimsoq tishchalari sarflansa hosildorlik yuqori bo`lishini aniqlashgan. Birinchi raqam(150) bitta tishning o`rtacha vazni 3 gramdan bo`lganda, ikkinchisi(350) - agar sarimsoq tishchasining og`irligi 7 gramm bo`lganda, xar bir m² yerga 50 donadan sarimsoq tishchasi ekilganda kelib chiqadi. Sariqsoqning katta boshlari asosan katta tishlardan hosil bo`ladi. Shuning uchun og`irligi 3 g dan kam bo`lmagan sarimsoq tishlarini ekish kerak, aksincha bo`lsa ulardan kichik boshlar o`sadi va hosildorlik kam bo`ladi.

Sarimsoq tishchalarini ekish chuqurligi. Bunda asosan sarimsoqning tishchalarini katta kichikligiga qarab chuqurlik tanlanadi. Bu, birinchi navbatda, tishlarning kattaligiga, ikkinchidan, ekish vaqtiga bog`liq boladi.



Sarimsoq tishchalarini ekish payti (1-rasm).



Sarimsoq ekilgan yerga go`ng solish (2-rasm).

Katta tishlar 4-5 sm chuqurlikda, kichikroq tishlar 3-4 sm chuqurlikda bir tekis qilib qo`lda ekiladi, buning uchun rekadan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Sarimsoq tishchalari ekilib bo`lingandan keyin ustiga 4 sm qalinlikdagi go`ng to`shak bilan yopish kerak. Ana shundan keyin sarimsoqni ekish nihoyasiga yetkazilgan hisoblanadi. Shundan so`ng sarimsoq ekilgan yer sug`oriladi. Ko`p miqdorda suv bilan ya`ni har kvadrat metr uchun 12-15 litr suv sarflanadi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki sarimsoqdan mo`l hosil olish uchun yerni o`z vaqtida ekishga tayyorlab, almashlab ekish qoidalariga, sarimsoq donachalarini katta kichikligiga qarab ekish chuqurligi va ekish muddatiga rioya qilgan holda ekilishi kerak. Bundan tashqari sarimsoq erta bahorda, qorlar eriganidan so`ng,

birinchi issiq kunlar kelishi bilan, ekinlarni azotli o'g'itlar bilan oziqlantiriladi, ikkinchi marta oziqlantirish aprel oyida, ko'chatlar o'sgandan keyin amalga oshiriladi. Birinchi oziqlantirishda ko'proq azot bo'lishi kerak, ikkinchi oziqlantirishda ko'proq fosfor va kaliy bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sarimsoqpiyoz yetishtirish ilmiy nashr “Agrobank”, Toshkent 2021
2. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi “Tafakkur bo'stoni”, Toshkent-2018
3. Tomorqa sabzavotchiligi “Mexnat”, Toshkent-1987